

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**70110801 - Ona tili va adabiyoti  
magistratura mutaxassisligining**

**MALAKA TALABI**

**Toshkent-2024**



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil «1» 08 dagi 222-sonli buyrug'i bilan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'lif vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar ta'lif vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	5
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari .....	5
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar .....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	8
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	9
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	10
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	11
<b>Kelishuv varag'i .....</b>	12

## **1. Umumiy tavsifi.**

**70111801 - Ona tili va adabiyoti mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Magistraturada o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil. Magistratura o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi), foydalaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o'quv yili uchun magistratura ta'lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydag'i PF-81-son Farmoniga ko'ra, 70110801 - Ona tili va adabiyoti mutaxassisligi magistrurasida o'qish uchun kamida B1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanishi.**

Malaka talabi **70110801 - Ona tili va adabiyoti** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilar:**

**70110801 - Ona tili va adabiyoti** magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari::**

**70110801 - Ona tili va adabiyoti** magistratura mutaxassisligi – qo'shimcha ravishda oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, ilmiytadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, mos ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish, shuningdek ta'lim sifatini monitoring qilish davlat inspeksiyasi, viloyat, tuman xalq ta'limi boshqarmalarining ta'lim sifatini monitoring qilish bo'limlari kabi kompleks masalalar, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga

yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim, umumiy o'rta, maktabgacha ta'lim muassasalari;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari; ta'lim sifatini monitoring qilish bo'limlari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

*ilmiy-pedagogik;*

*ma'naviy-ma'rifiy;*

*tashkiliy-boshqaruv;*

*pedagogik faoliyat*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

**70110801 - Ona tili va adabiyoti mutaxassisligi** bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Ilmiy-pedagogik faoliyatida:**

o'quv jarayonini rejalashtirish – DTS va O'D larining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, talabalarning extiyoylari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, fanlarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillariga ko'ra rejalashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differential yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

ta'lim samaradorligini ta'minlash – dars maqsadlariga ko'ra talabalar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqtidan unumli foydalansa, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, talabalarning ta'limiy maqsadlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, talabalarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, talabalarning jamoaviy va loyihibaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, talabalarga differential yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, auditoriyada samarali muloqotga erishish;

o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish - ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasini va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish – tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv

shakl va usullarini mashg'ulot hamda auditoriyadan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda talabalarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq talabalar uchun aniq odob-axloq qoidalarni o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish, talabalarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash – Talabalar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, talabalarga auditoriya hayotida teng imkoniyatlar yaratish, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, talabalar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish- muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstrukturlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

*Malaka amaliyoti* - ilmiy-tadqiqot olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish, fan, madaniyat va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishish, amaliy kasbiy va ilmiy tadqiqot kompetpensiyalarini shakllantirish, mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish, magistrlik dissertatsiyalari bo'yicha tajriba-sinov, ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish va kasbga samarali moslashuvni ta'minlashi kerak.

### **Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'mi va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehrmuruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

ta'lif-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

ilmiy va o'quv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir

qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

### **3. Amaliyat va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga qo'yiladigan talablar.**

Mutaxasislik bo'yicha malaka amaliyat nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikma va malakalar, tadqiqotchilik kompetentsyalarini shakllantirish maqsadida o'quv jarayonidan ajralgan holda 4 hafta amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash ITI va IPI natijalari asosida qo'lga kiritilgan ilmiy natijalarni umumlashtitish maqsadida o'quv jarayonidan ajralgan holda 10 hafta amalga oshiriladi.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama ning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00.</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01.	ITM1205	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	2
1.02.	YO'TSTTI1105	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lif tizimidagi islohotlar	150	5	1
1.03.	KL1305	Kognitiv lingvistika (qozoq tili va adabiyoti, qirg'iz tili va adabiyoti, qaraqalpaq tili ham adebiyatni fanlari)	150	5	3
		<b>Jami</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	
		<b>Qozoq tili va adabiyoti fani yo'nalishi</b>			
1.04.	OTMFO'M1105	Oliy ta'lilda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	150	5	1
1.05.	LN1305	Lingvistika nazariyasi	150	5	3
1.06.	IDQANM1405	Istiqlol davri qozoq adabiyoti nazariy masalalari	150	5	4
		<b>Jami</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	
<b>2.00.</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>900</b>	<b>30</b>	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	Pedagog-tadqiqotchi.			
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00.</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>Jami</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	
		<b>Rus tili va adabiyoti fani yo'nalishi</b>			
1.04	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.05	GMTNvaAM1305	Germenevtika: matn talqinlari nazariyasi va amaliyoti	150	5	3
1.06	EJATNvaA1302	Epik janrlarining adabiy tahlili nazariyasi va amaliyoti	150	5	3
1.07	LMA1405	Lingvomadaniyatshunoslik asoslari	150	5	4
		<b>Jami:</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
<b>2.00</b>		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>900</b>	<b>30</b>	
	<b>Kvalifikatsiya</b>	Pedagog-tadqiqotchi.			
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00.</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1-4</b>
		<b>Jami:</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	
		<b>Qirg'iz tili va adabiyoti fani yo'nalishi</b>			
1.04.	OTMFO'M1105	Oliy ta'lilda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi	150	5	1

1.05.	LN1305	Lingvistika nazariyasi	150	5	3
1.06.	IDQANM1405	Istiqlol davri qirg'iz adabiyoti nazariy masalalari	150	5	4
		<b>Jami:</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<i>Tanlov fanlar</i>	900	30	
<b>Kvalifikatsiya:</b>	Pedagog -tadqiqotchi.				
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00.</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	<b>JAMI</b>		<b>3600</b>	<b>120</b>	
<b>Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı tálim baǵdarı</b>					
1.04.	JBMPOM1105	Joqarı bilimlendirilewde qánigelik pánlerin oqıtırw metodikası	150	5	1
1.05.	LT1305	Lingvistika nazariyasi	150	5	3
1.06.	IDQANM1405	Ğárezsizlik dáwiri qaraqalpaq ádebiyatınıń teoriyalıq máseleleri	150	5	4
		<b>Jami</b>	<b>450</b>	<b>15</b>	
<b>2.00.</b>		<b>Tańlaw pánleri</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<i>Tańlaw pánler</i>	900	30	
<b>Kvalifikatsiya:</b>	Qaraqalpaq tili hám ádebiyatı páni oqıtırwshısı. Pedagog-izleniwshi.				
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00.</b>		<b>Ilmiy jumislar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	<b>JÁMI</b>		<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruhi T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, pedagog-tadqiqotchi, ilmiytadqiqotchi, lingvist, adabiyotshunos, filolog, pedagog-tadqiqotchi, ona (qozoq, rus, qoraqalpoq, qirg'iz) tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

## Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari



**ISHLAB CHIQILGAN:**  
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Rektor prof. A.Kirgizbayev

2024-yil 08-04  
M.O'.

## KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni  
rivojlantirish tatqiqotlari markazi  
Direktor M.Boltabayev  
2024-yil 08-08  
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'lifi ta'lif  
vazirligi huzuridagi  
Respublika ta'limi markazi  
Direktor Sh.Audaykulov  
2024-yil 08-07  
M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Rektor Sh.Sharipov  
2024-yil 08-08  
M.O'.

Chit Chiq davlat pedagogika universiteti  
Rektor G.Muxamedov  
2024-yil 08-07  
M.O'.